



## MILLIY ARMIYAMIZ HARBIY MADANIYATINING KELIB CHIQISHI VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410891>

**Jurayev Baxodir Xakimovich**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, Toshkent shahar*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy armiyamiz harbiy madaniyatining kelib chiqishi va uning o‘ziga xosligi, milliy armiyamiz harbiy madaniyatining asosiy jihatlari, milliy armiyamiz harbiy madaniyatining o‘ziga xosligi, buyuk ajdodlarimiz, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan yurt ozodligi yo‘lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz haqida yozib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy armiya, harbiy madaniyat, Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatchi, qadimiy madaniyat, milliy xavfsizlik, ijtimoiy ong, harbiy ong, xavfsizlik.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о происхождении и самобытности военной культуры нашей национальной армии, основных аспектах военной культуры нашей национальной армии, самобытности военной культуры нашей национальной армии, наших великих предках, великих соотечественниках, которые мужественно сражались с врагом на пути к свободе страны, достойно защищая нашу страну от захватчиков в целях сохранения мира нашего народа.

**Ключевые слова:** национальная армия, военная культура, Вооруженные Силы, военнослужащий, древняя культура, национальная безопасность, общественное сознание, военное сознание, безопасность.

**Annotation.** This article describes the origin of the military culture of our national army and its specificity, the main aspects of the military culture of our national army, the peculiarity of the military culture of our national army, our great ancestors, our great compatriots who fought valiantly against the enemy on the path of the liberation of the land, which adequately protected our country from

**Keywords:** national army, military culture, Armed Forces, military personnel, ancient culture, national security, social consciousness, military consciousness, security.

Milliy armiyamiz harbiy madaniyati O‘zbekiston mustaqilligi davrida shakllanib, qadimiy vatanparvarlik

an‘analari va zamonaviy islohotlar uyg‘unligida rivojlanmoqda. Uning o‘ziga xosligi – tinchlikni asrash, xalq



farovonligini ta'minlash va milliy armiyamiz harbiy xizmatchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan yondashuvdir. Harbiy madaniyat – bu qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining intellektual, axloqiy, professional va estetik qobiliyatlari, urf-odatlari, intizomi hamda harbiy xizmatga oid bilimlari majmuidir. U harbiylarning kasbiy faoliyati samaradorligini, vatanparvarlik hissini va harbiy an'analarga sadoqatini ifodalaydi. Harbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha:

1. Axloqiy-ruhiy madaniyat: Yuqori intizom, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik va harbiy qasamyodga sadoqat. 2. Kasbiy-jangovar madaniyat: Harbiy texnikani mukammal bilish, jangovar tayyorgarlik va taktik ko'nikmalar. 3. Harbiy-huquqiy madaniyat: Nizomlar, qonunlar va harbiy tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilish. 4. Estetik va madaniy saviya: Harbiy an'analarga hurmat, ma'naviy yetuklik, muomala madaniyati.

Bugun, o'zbek vatanparvaridan tarixda bitilgan barcha hodisalarni haqiqiy deb tushunmaslikni, ular tomonidan yetib kelgan har bir tarixiy-ilmiiy ma'lumotga ratsional ya'ni aqliy jihatdan yondashish lozimligini davrning o'zi talab etmoqda. Binobarin, "Ratsional tafakkur va dunyoqarash o'tkinchi, joriy siyosat bilan cheklanmaydi, masalaga tarixiylik va mantiqiylik prinsiplarining ratsional birligi, dialektik o'zaro aloqadorligi prinsipi nuqtai nazaridan qaraydi"[2].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasida harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona tizimini yaratish, milliy armiyamiz harbiy xizmatchilarining ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish, harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini hamda harbiy madaniyatini rivojlantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilikni oshirish, milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etishni tizimli asosda yo'lga qo'yish belgilab olingan. Tarix falsafiy tabiatga ega. Tarixiy bilimlarsiz milliy armiyamizda harbiy madaniyatni rivojlantira olmaymiz.



Harbiy madaniyatning kelib chiqishidan soʻz ochsak, Qadimiy ildizlar yaʼni Oʻzbek xalqining tarixiy qoʻshinlari, Amir Temur davridagi harbiy tartib-intizom va vatanparvarlik ruhiyati milliy armiyamiz madaniyatiga asos boʻlgan, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilishi bilan milliy harbiy madaniyat mustaqil yoʻlga

qoʻyildi. Bu davrda xalqimizning qadimiy urf-odatlar va zamonaviy harbiy tajribalar uygʻunlashtirildi hamda davlatimiz rahbari qarorlari orqali harbiy xizmatchilarning maʼnaviy-maʼrifiy saviyasini oshirish, ularni fidoyi va vatanparvar sifatida tarbiyalash tizimi joriy etildi.

### Milliy armiyamiz harbiy madaniyatining asosiy jihatlari

Jihatlar	Mazmuni
Kelib chiqishi	Qadimiy vatanparvarlik anʼanalari va mustaqillik davri islohotlari
Asosiy vazifa	Tinchlikni asrash, yurt sarhadlarini qoʻriqlash
Oʻziga xoslik	Vatanparvarlik tarbiyasi, maʼnaviy barkamollik, milliy qadriyatlar
Bayram va marosimlar	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni
Zamonaviy islohotlar	Harbiy kadrlar tayyorlash, texnologiyalarni qoʻllash, xalqaro tajriba

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga ilk bor 2017-yil 22-dekabrda qilgan “Murojatnomasi”da fuqarolarda vatanparvarlik tuygʻusini yuksaltirishda halq maʼnaviy merosining oʻrni beqiyos ekanligi alohida taʼkidlandi: “Maʼlumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi boʻlgan yurtimiz zaminidan oʻrta asrlarda minglab olimlar, buyuk mutafakkir va shoirlar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning maʼnaviy mulki hisoblanadi” [1].

Shunga koʻra, harbiy xizmatchilarda “Oʻzbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi!” degan hayotiy eʼtiqodni qaror toptirish, dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik, rahmdillik anʼanalarini va harbiy

madaniyatni singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini rivojlantirish hamda ularni harbiy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sogʻlom turmush tarzi asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, Oʻzbekiston deb atalgan jonjon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli boʻlishini albatta istaydi, hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yoʻlda oʻzining butun borligʻini bagʻishlashga tayyor turadi - mazmunidagi fikrlar ilgari suriladi.

Xaqiqatan ham Oʻzbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi Mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi. Bunda milliy xavfsizlik umumdavlat konsepsiyasining tarkibiy qismi boʻlib, tashqi siyosat, davlatlararo



munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga mutlaqo yangicha yondashuvlarga asoslanadi. Qurolli Kuchlarning yuksak jangovarlik qobilyati iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy texnikaviy va ilmiy kuch-qudratini rivojlantirish, O'zbekiston xalqining, shuningdek milliy armiyamizning jipsligi va har bir harbiy xizmatchini harbiy madaniyatini tarbiyalash eng muhim va dolzarb masaladir.

Buyuk ajdodlarimiz, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan yurt ozodligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bobur kabi milliy qahramonlarimizning ko'rsatgan jasoratini milliy armiyamizning harbiy xizmatchilariga doimo o'rnak sifatida ko'rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Xalqimizning yengilmas bahodiri - Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lida jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan milliy armiyamizning harbiy xizmatchilarini ya'ni bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Vatan ozodligi yo'lida jonini fido qilgan Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi ajdodlarimizning jasorati xalqimizning

ona-Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatining yorqin ifodasi sifatida olamga mashhur. Ularning hayoti va matonati tahsinga loyiq. Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga hissa qo'shgan al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Beruniy kabi alloma bobolarimiz uchun Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik juda katta ahamiyat kasb etgan. Shu sababli ular doimo o'z ism-shariflarini tug'ilib-o'sgan yurt nomi bilan qayd etib, Buxoriylar, Termiziylar, Samarqandiyar, Shoshiylar, Xorazmiylar, Nasafiylar, Farg'oniyar, Marg'inoniyar bo'lib olamga tanilganlar. Ajdodlarimizning ma'naviy merosi, hayot tarzi, ular haqidagi rivoyat va hikoyatlar barchasi bugungi kunda barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba, ibrat-namuna timsoli hisoblanadi.

Usmon Turon yozishicha: "Bugun mamlakatimizda demokratik jamiyat va demokratik davlatchilikni qaror toptirishida "mahalla" ijtimoiy institutning ta'siri va o'rniga oid ilmiy izlanish, faktik materiallar isbotlaydi. Turk davlatchiligi davrida Kultegin hoqonligi, uning mafkurasi buni yanada aniq tasdiqlaydi"[1]. Bundan kelib chiqidiki, milliy xavfsizlikni faqat davlat himoyasiga qisqartirish mumkin emas. U ijtimoiy ongda xavf, burch va javobgarlikni anglash darajasi bilan belgilanadi. Shunday qilib, milliy armiyamizda harbiy madaniyat tarbiyasi maqsadli, maxsus tashkil etilgan jarayondir. Harbiy xizmatchilar tomonidan rasmiy vazifalarni bajarish ularning yuksak ma'naviyatini, Vatanga



muhabbat, uning harbiy madaniyati va harbiy an'analarini tarbiyalash, Vatani, erkinligini va mustaqilligini fidokorona himoya qilishga tayyorligini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarni turli tarbiyaviy tadbirlarda tayyorlash, tashkil etish va faol ishtirok etishga bosqichma-bosqich kiritish ularda vatanparvarlik ongini, munosabat va faoliyatni rivojlantirishga, harbiy jamoani rivojlantirishga, kollektivistik his-tuyg'ularga va shaxslararo munosabatlarga, ijobiy kayfiyatga, o'quv, ta'lim va xizmat vazifalarini bajarishga turtki berishga yordam beradi.

Milliy xavfsizlik va ijtimoiy ong o'rtasidagi bog'liqlikni jahon tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Masalan, U. Bekning "xavf jamiyati" konsepsiyasida xavfsizlik xavfni anglash va unga munosabat bildirish madaniyati bilan bog'liq ekani ko'rsatiladi. O'zbekiston olimlari tahlillarida esa xavfni anglash darajasi ijtimoiy ong barqarorligi bilan chambarchas bog'langani ta'kidlanadi [3]. Harbiy oliy o'quv yurtida kursantlarning vatanparvarlik ta'limining natijalari asosan universitet o'qituvchilari va ofitserlarining jamoat va faxriy tashkilotlar, ijodiy ilmiy jamoalar bilan muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Harbiy madaniyat harbiy ta'lim va tarbiya jarayonida avvalgi avlodlarning vatanparvarlik va axloqiy tajribasi, harbiy olimlar va buyuk o'zbek generallarining g'oyalari, o'z vatani himoya qilish, O'zbekiston qudratini mustahkamlash uchun o'z

hayotlarini bag'ishlagan o'zbek milliy armiyasi harbiy xizmatchilarining misli ko'rilmagan jasorati va qahramonliklari misollaridan faol foydalanish kerak.

Darhaqiqat, 2001-yilda "Avesto"ning 2700 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham bu yurtlarda qadimiy sivilizatsiyalar asos solgani, ularning tarixi Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Eron va Yunoniston kabi jahonga mashhur madaniyatlar bilan teng darajada qadimiy ekani e'tirof etildi. Bu esa Markaziy Osiyo – ayniqsa, O'zbekiston hududining jahon sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, tarixda, xususan buyuk ajdodlarimiz o'lmas merosida vatanparvarlik eng oliy qadriyat deb baholangan. Shu o'rinda bir rivoyatni eslash joiz. Bu rivoyat turli jiddiy nashrlarda ham aks etgan. Zero, vatanparvarlik g'oyasi milliy etnomadaniyat, milliy mentalitet, halq og'zaki ijodi, folkler va san'ati bilan uzviy aloqador. Bugungi kinosanoatda Shimol "viking"lari, Sharqda janubiy Koreya, Xitoy va Yaponiyaning vatanparvarlik g'oyasiga asoslangan tarixiy kino mahsulotlari vatanparvarlik g'oyasini ulug'lashga bag'ishlangan. Bunday san'at mahsulotlari harbiy xizmatchilarni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan barkamol shakllanishiga, harbiy ongni va harbiy madaniyatni rivojlanishiga, vatanparvarlik tuyg'usini qalblarga yoshligidan singdirilishiga, o'z halqi, millati va Vatani uchun faxr, g'urur



tuygʻsini baland koʻtarib yurishiga xizmat qiladi.

Harbiy ong jamiyatda xavfsizlikni anglash va qabul qilish madaniyatini rivojlantiradi. Falsafa fanlari doktori Q.Nazarov “Xavfsizlikni faqat tashqi tahdidlardan himoya emas, balki ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida talqin qilgan” [4]. Harbiy ong aynan shu xavfsizlikni ongli ravishda taʼminlashga xizmat qiladi. Koʻpmillatli, koʻpkonfessiyali Oʻzbekiston sharoitida milliy armiyamizning harbiy xizmatchilarida harbiy madaniyatni, harbiy vatanparvarlik va millatparvarlik tuygʻularini oʻzaro mutanosib ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan milliy armiyamizning harbiy xizmatchilarida harbiy madaniyatni, harbiy vatanparvarlik va millatparvarlik tuygʻularini oʻzaro mutanosib ravishda rivojlantirish milliy birdamlik, tinchlik va farovonlik asosidir. Bu orqali milliy armiyamizning har bir harbiy xizmatchisida oʻz millatiga hurmat va vataniga sadoqat hissi uygʻonadi, mamlakatimiz yanada mustahkam va barqaror boʻladi. Bu esa millatlararo totuvlik, dinlararo bagʻrikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik, madaniyatlara konstruktiv muloqot tamoyillari zamonaviy talqindagi harbiy vatanparvarlik kategoriyasining ajralmas qismi boʻlishi zarurligidan dalolat beradi.

Bobur, Shayboniyxon davlatchiligidan esa faqat Boburning “Boburnoma” sheʼriy toʻplami bor deb oʻylar edi. Xullas, “akademik Ibrohim Moʻminovning “Amir Temur va uning Oʻrta Osiyo madaniyati taraqqiyotidagi

oʻrni va ahamiyati” toʻgʻrisidagi xolisona obyektiv tarixiy maʼnodagi maqolasi kuppakunduz portlagan”bomba” effektini berdi”[5].

Milliy armiyamiz harbiy madaniyatining oʻziga xosligi shundan iborat:

1. Tinchlik va osoyishtalikni taʼminlash: Armiyaning asosiy vazifasi – yurt sarhadlari qoʻriqlash va xalqning osoyishta hayotini kafolatlashdir.

2. Vatanparvarlik tarbiyasi: Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, taʼlim, sport va jamiyat bilan uzviy bogʻliq tarzda amalga oshiriladi.

3. Maʼnaviy-maʼrifiy yondashuv: Harbiy xizmatchilar nafaqat jangovar tayyorgarlik, balki maʼnaviy barkamollik, intizom va fidoyilik ruhida rivojlantiriladi.

4. Milliy qadriyatlar bilan uygʻunlik: Harbiy marosimlar, bayramlar (masalan, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni) xalqimizning qadimiy anʼanalari bilan uygʻunlashgan.

5. Zamonaviy islohotlar: Harbiy kadrlarni tayyorlashda yangi texnologiyalar, xalqaro tajribalar va milliy oʻziga xoslik birlashtirilmogʻda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, milliy armiyamiz harbiy madaniyati – qadimiy anʼana va zamonaviy islohotlarning uygʻunligi boʻlib u nafaqat yurt mudofaasini taʼminlaydi, balki milliy armiya harbiy xizmatchilarini harbiy vatanparvarlik, fidoyilik va maʼnaviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim oʻrin tutadi. Shu



bois, u O‘zbekistonning tinchligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir.

## ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilayotgan eng oliy baho. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 82 b.
2. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: “Ma’naviyat” 2008. – 463 b.
3. Nurimbetov R. Xavf jamiyati va milliy barqarorlik. – Toshkent: Fan, 2018. – 44-47 b.
4. Nazarov Q. Xavfsizlik falsafasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 49-52 b.
5. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – T.: Fan, 1993. – 56 b.